

YURIDIK SOHADA BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING XAVFSIZLIK MASALALARI

¹**Kamoliddinov Jaloliddin**

¹Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti

jaloliddin_0707@icloud.com

²**Javoxir Eshonqulov**

Ilmiy rahbar

²Toshkent davlat yuridik universiteti, Kiber huquq kafedrası o'qituvchisi

Javoxireshonqulov0724@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqola yuridik xizmatlar sohasida bulutli texnologiyalarning xavfsizlik masalalari naqadar muhim ekanligini o'rganadi. Mazkur maqola yuridik xizmatlar sohasida bulutli texnologiyalarning joriy etilishi va ularning xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan. Zamonaviy yuridik xizmatlar ko'rsatishda bulutli texnologiyalarning roli ortib bormoqda, bu esa samaradorlikni oshirgan holda, yangi xavfsizlik tahdidlarini ham yuzaga keltirmoqda. Maqolada yuridik ma'lumotlarning himoyasi, kibertahdidlar, maxfiylik va ma'lumotlar buzilishining oldini olish bo'yicha muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli huquqiy xizmatlarda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun zarur texnologik yechimlar va xalqaro amaliyotlar ko'rib chiqiladi. Mualliflar axborot texnologiyalarining rivojlanishi yuridik sohada yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, xavfsizlik choralari kuchaytirishni ham taqozo etishini ta'kidlaydilar. Maqola yuridik amaliyotchilar, IT mutaxassislari va ilmiy tadqiqotchilar uchun dolzarb bo'lgan masalalarni yoritadi.

Kalit so'zlar: Bulutli texnologiya, yuridik xizmat, kiberxavfsizlik, data brench, AI.

ОБЛАЧНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРАВОВОЙ СФЕРЕ ВОПРОСЫ БЕЗОПАСНОСТИ

Камолидинов Джалолиддин

Ташкентский государственный юридический университет

Факультет уголовного правосудия
jaloliddin_0707@icloud.com

Джавахир Эшанкулов

Научный руководитель

Преподаватель кафедры киберправа Ташкентского государственного
юридического университета

Джавахиreshonkulov0724@gmail.com

***Аннотация:** В данной статье исследуется важность облачной безопасности в сфере юридических услуг. Данная статья посвящена внедрению облачных технологий в сфере юридических услуг и вопросам их безопасности. Роль облачных технологий в предоставлении современных юридических услуг возрастает, что, одновременно повышая эффективность, создает и новые угрозы безопасности. В статье анализируются правовая защита данных, киберугрозы, вопросы конфиденциальности и предотвращения утечки данных. Также рассмотрены необходимые технологические решения и международный опыт обеспечения безопасности данных в цифровых юридических услугах. Авторы отмечают, что развитие информационных технологий создает новые возможности в правовом поле, но также требует усиления мер безопасности. В статье освещены вопросы, которые актуальны для практикующих юристов, IT-специалистов и научных исследователей.*

***Ключевые слова:** Облачные технологии, юридические услуги, Кибербезопасность, отрасль данных, ИИ.*

CLOUD TECHNOLOGIES IN THE LEGAL FIELD SECURITY ISSUES

Kamoliddinov Jaloliddin

Tashkent State Law University

Faculty of Criminal Justice

jaloliddin_0707@icloud.com

Javakhir Eshankulov

Scientific supervisor
Teacher of the Department of Cyber Law, Tashkent State University of Law
Javakhireshonkulov0724@gmail.com

Abstract: *This article explores the importance of cloud security in the field of legal services. This article is devoted to the implementation of cloud technologies in the field of legal services and their security issues. The role of cloud technologies in the provision of modern legal services is increasing, which, while increasing efficiency, also creates new security threats. The article analyzes legal data protection, cyber threats, privacy and data breach prevention issues. Also, necessary technological solutions and international practices to ensure data security in digital legal services are considered. The authors note that the development of information technologies creates new opportunities in the legal field, but also requires strengthening of security measures. The article highlights issues that are relevant for legal practitioners, IT specialists and scientific researchers.*

Keywords: *Cloud technology, legal service, cybersecurity, data branch, AI.*

Kirish. Biz bu mavzuni yoritishdan oldin bulutli texnologiyalar nima o'zi degan savolga javob topishimiz kerak. Bulutli texnologiyalar – bu internet ya'ni bulut orqali ma'lumot va resurslarni saqlash, ishlov berish va boshqarish imkonini beradigan texnologiyalar majmuasidir. Boshqacha aytganda biz bulutli texnologiyalar yordamida o'zimizning kompyuterimizda yoki serverimizda bo'lmagan, tashqi serverlarda joylashgan dastur va ma'lumotlarga internet orqali kirishimiz mumkin.

Bulutli texnologiyalar (cloud computing) bugungi kunda turli sohalarda, jumladan yuridik xizmatlar sohasida ham keng qo'llanilmoqda. Bu

texnologiyalar orqali yuridik tashkilotlar ma'lumotlarni saqlash va boshqarish, hujjatlarni qayta ishlash, mijozlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlashda yangi imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Misol uchun, huquqiy firma mijozlarining shaxsiy hujjatlari yoki ish bo'yicha dalillarni bulutga yuklash orqali ularga istalgan vaqtda kirish imkoniyatini taqdim etishi mumkin. Ammo bu texnologiya bir qancha xavf-xatarlarni ham o'z ichiga oladi: ma'lumotlarning maxfiyligini buzilishi, kiberhujumlar, texnologik provayderlar tomonidan ma'lumotlarning suiiste'mol qilinishi kabi muammolar ko'p uchramoqda. Shu sababli, yuridik sohada bulutli texnologiyalarning xavfsizligini ta'minlash muhim masalalardan biridir.

Bulutli texnologiyalar o'zi 3ta asosiy turga bo'linadi. Bular:

1. Public Cloud ya'ni Jamoat buluti: Ushbu tur odatda umumiy provayderlar tomonidan taqdim etiladi. Yuridik tashkilotlar xarajatlarni kamaytirish va oson integratsiya qilish uchun buni ishlatadilar, ammo bu tur xavfsizlik risklari jihatidan zaifroq hisoblanadi.

2. Private Cloud ya'ni xususiy bulut: Ushbu bulut turlari maxsus tashkilotlar uchun ajratilgan bo'lib, yuqori xavfsizlikni ta'minlaydi.

3. Gibril bulut (Hybrid Cloud): Jamoat va xususiy bulutlarning kombinatsiyasidan iborat. Yuridik firmalar maxfiy ma'lumotlarni xususiy bulutda, kam xavfli ma'lumotlarni esa jamoat bulutida saqlashlari mumkin.

Hozirgi kunda ko'plab yuridik yordam ko'rsatuvchi kompaniyalar, advokatlik firmalari va hatto davlat huquqni muhofaza qilish organlari ham ma'lumotlarni Cloud ya'ni bulutlarga saqlay boshladilar. Xo'sh bu qanchalik xavfsiz? Yuridik soha yuqori darajadagi maxfiylikni talab qiladi. Bulutda saqlanayotgan ma'lumotlarning himoyasizligi, uchinchi tomonlarga

noto'g'ri qo'llanilishi yoki kiberhujumlar orqali ma'lumotlarning yo'qolishi xavfi mavjud. Masalan, bulutli xizmatlar, serverlar va tarmoqlar orqali ma'lumotlarga kirish, "Data Breach" o'zbekchaga tarjima qilganda "ma'lumotlar buzilishi" holatlariga olib kelishi mumkin.¹

Ma'lumotlar xavfsizligining buzulishiga yana bir sabab bu ma'lumotlarning shifrlanmaslidir. Ma'lumotlar shifrlashni amalga oshirmaslik, mijozlarning shaxsiy va biznes ma'lumotlarining uchinchi shaxslar tomonidan o'qilishiga yoki o'zgartirilishiga olib kelishi mumkin. Bulutli platformalarda ma'lumotlar qanday shifrlanishi va qanday qilib faqat ruxsat etilgan foydalanuvchilar uchun ochilishi haqida qat'iy qoidalar bo'lishi kerak. Shuningdek, shifrlash kalitlari va ma'lumotlarni saqlashning to'g'ri nazorati ham muhim masalalardan biri hisoblanadi.²

Har qanday odam ham Cloudlarga kirib ketishi kerak emas buning uchun foydalanuvchi kirish huquqlarini boshqarish muhim hisoblanadi. Bulutli tizimlarda foydalanuvchilar uchun maxsus kirish huquqlari va parol siyosatlarini yaratish muhim. Yuridik firmalar foydalanuvchi kirishini samarali boshqarish orqali faqat ruxsat etilgan shaxslar ma'lumotlarga kirish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashi kerak. Multi-faktorial autentifikatsiya (MFA)ni joriy qilish, kirishni nazorat qilish va foydalanuvchi auditini olib borish zarur. Shu o'rinda Multi-faktorial autentifikatsiya (MFA) nima ekanligiga ta'rif berib o'tmoqchiman. MFA - bu tizimga kirishni tasdiqlash uchun bir nechta turdagi autentifikatsiya faktorlari qo'llaniladigan xavfsizlik mexanizmidir. MFA yordamida, foydalanuvchi birgina parol yoki PIN kod bilan emas, balki

¹ <https://aws.amazon.com/security/>

² <https://learn.microsoft.com/en-us/azure/security/>

qo‘shimcha tekshiruvlar orqali tizimga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu qo‘shimcha tekshiruvlar odatda uchta turdagi faktorlar asosida bo‘linadi. Bular: Something you have ya’ni sizda biror jismoniy qurilmaning bo‘lishi, something you are ya’ni sizning biometrik ma’lumotlaringiz va something you know ya’ni siz bilgan parol yoki PIN kodlar kabilardir.³

Washington Universitetining huquq sohasi bo‘yicha proffessori Orin S.Kerrdan boshalsak: Professor Orin Kerr, kiberxavfsizlik va huquqshunoslik bo‘yicha taniqli mutaxassis, bulutli texnologiyalarning xavfsizligini ta’minlashda ma’lumotlarni himoya qilish va huquqiy javobgarlikni ta’kidlaydi. U, ayniqsa, yuridik ma’lumotlar va mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun raqamli xavfsizlik choralarining kuchaytirilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Kerr, “yuridik sohada ma’lumotlarning xavfsizligi, faqat texnologik yechimlar bilan emas, balki qonuniy va tartibga soluvchi muhit bilan ham qo‘llab-quvvatlanishi kerak”, — deydi. U, shuningdek, GDPR kabi xalqaro regulyatsiyalarni yuridik xizmatlarda qo‘llash zarurligini ta’kidlashadi, chunki ular ma’lumotlarning maxfiyligini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi.

Bu borada Sharon D.Nelosnga to‘xtalsak: Sharon D. Nelson, ma’lumotlar xavfsizligi va huquqiy texnologiyalar bo‘yicha mutaxassis, bulutli texnologiyalarni yuridik sohada qo‘llashda yuzaga keladigan xavfsizlik masalalariga doimiy ravishda e’tibor qaratadi. U, asosan, yuridik firmalar va huquqshunoslar uchun texnologik xavfsizlikni ta’minlashning ahamiyatini ta’kidlashadi. Nelsonning fikriga ko‘ra, bulutli texnologiyalarni qo‘llashda maxfiylikni saqlash va xavfsizlikni ta’minlash uchun yuridik firmalar o‘zlarining ichki siyosatlarini va protokollarini yangilashlari zarur. U, shuningdek, bulutli

³ <https://gdpr.eu/>

xizmatlarning shartnomalarida maxfiylik va xavfsizlik bo'yicha qat'iy talablarni belgilashni ta'kidlaydi.

Qonunchilikga nazar tashlasak afsuski bu soha bizga endilikda kirib kelayotgani uchun bizda hali qonunlar yoq lekin jahon mamlakatlaridan misol keltirsak bo'ladi. Masalan Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi: Rossiyada ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi federal qonun (152-FZ) shaxsiy ma'lumotlar va ularning saqlanishi bilan bog'liq huquqiy talablarni belgilaydi. Bulutli texnologiyalarni qo'llashda quyidagi xavfsizlik talablariga rioya qilish zarur: Ma'lumotlarni saqlash joyi: Rossiya qonuni, shaxsiy ma'lumotlarni faqat Rossiyada joylashgan serverlarda saqlashni talab qiladi, bu esa bulutli xizmatlar uchun qo'shimcha xavfsizlik choralari va yuridik majburiyatlar yaratadi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish: Ma'lumotlarni bulutda saqlashda, tashkilotlar ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash uchun shifrlash va maxfiylik siyosatlari yaratishlari zarur.

AQSH qonunchiligiga to'xtalsak: Kaliforniya Ma'lumotlarni Himoya Qonuni (CCPA) 2020-yilda kuchga kirgan va AQShda, xususan, Kaliforniya shtatida, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan. Bu qonun bulutli texnologiyalar orqali saqlanadigan ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashga doir bir qator normalarni belgilaydi:

- Ma'lumotlarga kirish huquqi va nazorat: CCPA qonuni, foydalanuvchilarga o'z shaxsiy ma'lumotlariga kirish huquqini beradi va ular bu ma'lumotlar bilan qanday ishlashini ko'rish imkoniyatiga ega. Bulutli texnologiyalar orqali saqlanadigan ma'lumotlar ham ushbu talabga muvofiq bo'lishi kerak.

- Shaxsiy ma'lumotlarni saqlashning xavfsizligi: Bulutli xizmat provayderlari, ma'lumotlarni saqlashda xavfsizligini ta'minlashi, ularga ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun kuchli xavfsizlik choralari ko'rishi zarur. Bunda ma'lumotlarning shifrlanishi va boshqa himoya mexanizmlari qo'llanilishi kerak.

- Ma'lumotlarni o'chirish va uzilishlar: Foydalanuvchilar o'z ma'lumotlarini o'chirishni talab qilish huquqiga ega. Bulutli provayderlar, ma'lumotlarni o'chirishda va saqlash jarayonida qonun talablariga rioya qilishlari lozim. Kaliforniya Ma'lumotlarni Himoya Qonuni (CCPA) 2020-yilda kuchga kirgan va AQShda, xususan, Kaliforniya shtatida, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan. Bu qonun bulutli texnologiyalar orqali saqlanadigan ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashga doir bir qator normalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston milliy qonunchiligida bulutli texnologiyalar va ularning xavfsizlik masalalariga bevosita bag'ishlangan maxsus qonunlar mavjud bo'lmasada, bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ma'lumotlar xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va axborot texnologiyalarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha umumiy talablarni belgilar ekan. Quyida ushbu qonunchilik hujjatlari va ularning yuridik sohada bulutli texnologiyalarga tatbiq etilishi bilan bog'liq misollar keltirmoqchiman:

1.Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni (2021-yilda kiritilgan o'zgartirishlar bilan) shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu qonun:

- Ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun rozilik olish zarurligini belgilaydi.

• Ma'lumotlar noqonuniy yo'llar bilan tarqalishining oldini olish uchun xavfsizlik choralarini ko'rishni talab qiladi.

Bulutli texnologiyalar bilan bog'liqliligi: Yuridik firmalar mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlashda yoki uzatishda ushbu qonunning talablariga rioya qilishi lozim. Masalan, advokatlik firmasi mijozning ishga doir maxfiy hujjatlarini bulutga joylashtirsa, mijozdan rozilik olish va maxfiylikni ta'minlaydigan shifrlash texnologiyalaridan foydalanish zarur.

2. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun 2004-yilda qabul qilingan ushbu qonun elektron hujjatlarni boshqarish va ular bilan ishlashning umumiy qoidalarini belgilaydi. Elektron hujjatlar elektron imzo orqali tasdiqlangan bo'lsa, yuridik kuchga ega bo'ladi. Bulutli texnologiyalar bilan bog'liqliligi: Yuridik firmalar elektron hujjatlarni bulutli platformalarda saqlashda ularning haqiqiylikini va yuridik kuchini saqlash uchun elektron raqamli imzoni qo'llashlari lozim. Masalan, yuridik maslahat beruvchi tashkilot hujjatlarni masofadan imzolash va almashish uchun O'zbekistonning elektron hukumat tizimi yoki boshqa tasdiqlangan xizmatlardan foydalanishi mumkin.

3. "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun

2013-yilda qabul qilingan "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi qonun O'zbekiston hududida axborot tizimlari va texnologiyalarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni belgilaydi. Ushbu qonunga muvofiq:

• Axborot xavfsizligi subyektlari o'z tizimlarida xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak.

• Ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun texnik va tashkiliy choralar ko'riladi.

Bulutli texnologiyalar bilan bog'liqliligi: Yuridik tashkilotlar o'z mijozlarining ma'lumotlarini bulutli platformalarda saqlashda xavfsizlik standartlariga muvofiq choralar ko'rishi shart. Masalan, advokatlik firmasi mijoz ma'lumotlarini saqlash uchun sertifikatlangan xizmat ko'rsatuvchi provayderni tanlashi kerak.

Endi men bulutli texnologiyalarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'z yechimlarimni bermoqchiman. Birinchidan yuridik firmalar bulutli platforma orqali saqlanadigan barcha ma'lumotlarni shifrlashni ta'minlashi lozim. AWS, Azure, yoki Google Cloud kabi xizmatlar, ma'lumotlarni shifrlash uchun ilg'or vositalarni taqdim etadi. Ikkinchidan xavfsizlikni doimiy monitoring qilish kerak ya'ni yuridik firmalar bulutli infratuzilmaning xavfsizligini doimiy ravishda nazorat qilishlari kerak. Buning uchun, xavfsizlikka oid voqealarni tahlil qiluvchi va monitoring qiluvchi tizimlar (masalan, AWS GuardDuty yoki Azure Security Center) yordamida avtomatik xavf-xatarlarni aniqlash mumkin. Uchinchidan maxfiylik siyosatini ishlab chiqish kerak ya'ni kompaniya o'zining bulutli xizmatlarida ishlatiladigan ma'lumotlar bilan bog'liq maxfiylik siyosatini ishlab chiqishi va xodimlar, mijozlar bilan ushbu siyosatni doimiy ravishda yangilab borishi kerak.⁴

Bilamizki hozir 21-asr axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan zamonda yashayapmiz. Har kuni yangidan yangi texnologiyalar kashf qilinmoqda va rivojlantirilmoqda. Aynan bulutli texnologiyalar ham shular jumlasidandir. Bu soha ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Shulardan kelib chiqib Bulutli texnologiyalar kelajakda kengayishi va integratsiyalashishi tabiiy. Bunga sun'iy intellekt bilan integratsiyalashishi mumkinligini keltirishim mumkin. Bulutli

⁴ <https://www.hhs.gov/hipaa/index.html>

platformalar kelajakda sun'iy intellekt (AI) bilan yanada chuqurroq integratsiya qilinadi. Masalan: AI asosida hujjatlarni tahlil qilish: Yuridik firmalar bulutdagi hujjatlarni avtomatik ravishda tahlil qilish va to'g'ri kategoriyalarga ajratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kiberxavfsizlikda AI qo'llanilishi: AI tizimlari kiberxavf-xatarlarni real vaqt rejimida aniqlash va oldini olishda yordam beradi. Qolaversa bu sohada kelajakda xavfsizlik yanada ortishini tahmin qilish mumkin. Chunki bilamizki hakkerlar ham kundan kunga yangi dasturlar yaratib yangicha yo'llar bilan firibgarlik qilishga harakat qilishyapti. Bu esa o'z -o'zidan ularga qarshi xavfsizlikni yanada oshirishni talab qiladi.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki hozirgi texnologiyalar rivojlanib borayotgan zamonda albatta bizning yuridik va advokatlik firmalarimiz, huquqni muhofaza qiluvchi organlarimiz ham o'z ma'lumotlarini bulutli texnologiyalarda saqlashni rivojlantirishi kerak. Bu o'z navbatida qog'ozga bo'lgan talabning kamayishiga va bilamizki qog'oz daraxt postlog'idan olinadi qog'ozga bo'lgan talabning kamayishi esa daraxtlar kesilishini kamayishiga sabab bo'ladi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar:

1. <https://academic.oup.com/cjres/article/13/1/135/5716343>.
2. <https://lawels.com/en/2023/01/15/a-time-of-change-digital-transformation-in-the-legal-industry/>.
3. <https://www.legalserviceindia.com/legal/legal/legal/article-17599-the-digital-transformation-of-law-exploring-technology-s-impact-on-the-legal-industry.html>.
4. <https://jolt.law.harvard.edu/digest/the-promise-and-peril-of-ai-legal-services-to-equalize-justice>.

5. Karimjonova Laylo Abdumalik qizi, & JavoxirEshonqulov. (2024). LEGAL AND TECHNICAL ASPECTS OF PERSONAL DATA PROTECTION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14231936>.

6. Eshonqulov, Javoxir. "SUV RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH YO‘LIDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK TAHLILI." Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2.11 Part 3 (2023): 47-52. 7.

7. Eshonkulov, J. (2024). Legal foundations for the application of artificial intelligence Technologies in the Sports Industry. American Journal of Education and Evaluation Studies, 1(7), 240-247. <https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/320/287>

8. Ruxshona, S., & Eshonqulov, J. (2024). KRIPTOVALYUTALARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI. Journal of new century innovations, 65(3), 142-146. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3724>

9. Charos, M., & Eshonqulov, J. (2024). RAQAMLI BANK KARTALARIDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY JIHATLARI. Journal of new century innovations, 65(3), 157-165. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3733>

10. Eshonqulov, J. (2024). ELEKTRON DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI. Journal of new century innovations, 65(3), 131-141. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3720>

11. Usmonova, S., & Eshonqulov, J. (2024). HUQUQIY RISKLARNI BAHOLASHDA BIG DATA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Modern Science and Research, 3(11), 464-471. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3724>

12. Orziqulov Elnur, and Javoxir Eshonqulov. 2024. “RAQAMLI PLATFORMALARDA FOYDALANUVCHILAR SHAXSIY MA’LUMOTLARINI HIMOYA QILISH”. Journal of New Century Innovations 65 (3): 166-72. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3738>. (<https://scientific-jl.org/new/article/view/3738>)
13. Tirkasheva Umida, & Javoxir Eshonqulov. (2024). RAQAMLI PLATFORMALARDA REKLAMA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 58(4), 28-38. <https://scientific-jl.org/obr/article/view/3983>
14. Ergashaliyeva Sevinch, & Javoxir Eshonqulov. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI LITSENZIYALASH . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 58(4), 9-18. <https://scientific-jl.org/obr/article/view/3981>
15. Hafizov Diyorbek, & Javoxir Eshonqulov. (2024). ANALYSIS OF LEGAL DOCUMENTS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LEGAL ACTIVITY. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14231948>